

UZBEKİSTAN

LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKİSTON: TIL VA MADANIYAT

## Adabiyotshunoslik

2025 Vol. 1 (2)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKİSTON: TIL VA MADANIYAT

## ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 1 (2)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rincosarlar:** Nurboy Jabborov  
Bahodir Karimov

**Mas'ul kotib:** Sohiba Madirimova

### **Tahrir kengashi**

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'lidosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigel Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Ilhom Sayitqulov, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

**"Adabiyotshunoslik"** – "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta nashr etiladi.

Jurnalning **"Adabiyotshunoslik"** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosisy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

**"Adabiyotshunoslik"** seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

**"Adabiyotshunoslik"** seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** adabiyotshunoslik2022@gmail.com

**Website:** [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

<b>Dilnavoz Yusupova</b>	
Samarqand shahri ikki buyuk siymo talqinida .....	5
<b>Sohiba Umarova</b>	
Sa'diy Xorazmiy devoni nusxalari va janrlar tarkibi .....	16
<b>Olimjon Abdullayev</b>	
Balog'at ilmi rivojida arab sheriyatining o'rni.....	27
<b>Muattar Axmedova</b>	
O'rta Osiyoda agiografik asarlarning o'rganilishi .....	47
<b>Asadullojon Aminjonov</b>	
Sharq adabiy merosida tafsir ilmining shakllanishi, metodologiyasi va yurtimizda yetishib chiqqan soha yetakchilari .....	58
<b>Xafiza Abduraimova</b>	
Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr va Masih obrazlari talqini .....	75
<b>Sarvinoz Qurbonova</b>	
Nodim Namangoniyning poetik mahorati .....	88
<b>Dilnavoz Sattorova</b>	
Sa'diy lirkasi kiritilgan to'plam-bayozlar tavsifi .....	102
<b>Firuza Ibragimova</b>	
"Devoni Faqiriyl Xorazmiy" qo'lyozma devonining dastxat nusxasi ...	117
<b>Dilafruz Bozorboyeva</b>	
Pahlavonquli Ravnaq hayoti va lirk merosi .....	130
<b>Mahliyo Rasulova</b>	
"Hayrat ul-abror" dostoni hikoyatlaridagi tasavvufiy mazmunning badiiy talqini .....	141
<b>Rayhon Norqulova</b>	
"Yo'qotganlarim va topganlarim" asarida ustozlar yodi .....	151
<b>Charos Kuvondikova</b>	
Furqat ijodining o'rganilishi haqida ba'zi mulohazalar .....	160
<b>ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI</b>	
<b>Abdulla Ulug'ov</b>	
Adabiy qahramon – insonning adabiyotdagi obrazi .....	168

<b>Sitorabonu Ataullayeva</b>	
Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida ruhiyat va tabiat tasviri .....	202
<b>Dilnoza Sayfullayeva</b>	
“Sariq devning o‘limi” romanidagi obrazlarning biografik asosi .....	214
<b>Umida Abdullayeva</b>	
Expressive Description of London and Market in Dickens’ Novel Oliver Twist .....	224

# Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr va Masih obrazlari talqini

Xafiza Abduraimova<sup>1</sup>

## Abstrakt

Turkiy adabiyot, xususan, o'zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiyning o'rni beqiyos. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning g'azallaridagi ushbu lirikasidagi obrazlar mohiyatiga yetishga harakat qilinib, uning badiiy tasvirlari hamda talqinlarining sabablari bir qadar ochib berilgan.

Maqola uchun aynan Xizr va Masih obrazining tanlab olinishi tasodif emas. Ushbu obrazlar turkiy xalqlar mifologiyasi, folklori, adabiyotida juda ham mashhur shaxs hisoblanadi. Shu qadar mashhurligidan maqol va matallarga obraz bo'lib xizmat qilgan. Turkiy adabiyotning ulkan ustuni bo'lgan Alisher Navoiyning ushbu obrazga munosabati, albatta, qiziqarli. Shu sabab ham maqolaga aynan Alisher Navoiy lirikasidagi Xizr obrazi tasvirlari manba sifatida tanlangan.

Maqolada Alisher Navoiyning Xizr va Iso Masih obrazlari radif qilib olingan g'azallari tahlil qilindi. Tahlil uchun Navoiyning "Favoyid ul-kibar" hamda "Badoye' ul-vasat" dagi g'azallari tanlab olindi. Tanlab olingan ushbu g'azallar shoirning bir xil mavzu haqidagi ikki xil uslubdagi g'azallaridir. Maqolani yozish jarayonida bir necha xorijiy hamda milliy manbalar, diniy adabiyotlarga ham murojaat qilingan.

**Kalit so'zlar:** "Favoyid ul-kibar", "Badoye' ul-vasat", g'azal, Xizr, Iso, Masih, Hidirillez, Ilyos.

## Kirish

Ingliz tilidagi manbalarda Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, turkiyzabon xalqlarda bahor va yoz faslining boshlanishi nishonlanadigan 5- va 6-may kunlari "Hidirillez" festivali o'tkazilishi, bu nom Xizr va Ilyos nomlarining qorishuvidan paydo bo'lgani yoziladi. Ilyos yahudiylik va nasroniylikda tanilgan, aftidan, miloddan avvalgi IX asrda Isroil shohligining shimoliy qismida yashagan haqiqiy shaxs. U yahudiylikdagi buyuk payg'ambarlardan biri hisoblangan,

<sup>1</sup> Abduraimova Xafiza Allanazarovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: abduraimovaxafiza@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0008-4636-9133

Iqtibos uchun: Abduraimova, X. "Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr va Masih obrazlari talqini". O'zbekiston: til va madaniyat. 2025, 1 (2). 75-87.

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.2025.1.2/ZOIG3211

yahudiylarga Xudodan yuz o'girib, butlarga va Baal kabi soxta xudolarga sig'inishga harakat qilgan har bir kishining boshiga katta baxtsizliklar kelishini bashorat qilgan. Ilyos (a.s) o'liklarni tiriltirgan va amalga oshadigan bashoratlarni aytgan ham deyiladi. Yahudiylik, nasroniylik va islomda uning qiyomatgacha yerga qaytishi bashorat qilingan. Xizr va Ilyos "bu dunyo va oxiratning ikki "qo'riqchi ruhi" sifatida tasvirlanadi. Xizr hayot suvini ichib, o'lmaslikka erishgan bo'lishi kerak. Bu uni Idris, Iso va Ilyosni o'z ichiga olgan to'rtta abadiy hayot egalaridan biriga aylantirgan [URL 1].

### **Asosiy qism**

Burhonuddin Rabg'uziy o'zining "Qisasi Rabg'uziy" asarida shunday yozadi: "Xizr ma'nisi yashil bo'lur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom o'ltursa, ul yer ko'karur erdi. Ba'zilar aydilar, Xizr yalavoch erdi. Ba'zilar aydilar, yalavoch ermas, solih, muslih erdi. Tag'i sayramlig'. Bani Isroilda ulg'ardi. Mangu suyin ichib tirik qoldi, ammo Ilyos mursal yalavoch turur" [Rabg'uziy 1991, 68].

O'zbek adabiyotshunosligida ham Xizr obrazi ancha batatsil o'rganilgan. Professor Najmiddin Komilov "Tasavvuf" kitobida "Xoja Xizr hayot suvi – abadiy tiriklik suvini ichgan, u hamma voqeadan, hamma ahvol-u hamma kechinmalardan xabardor; narsalar xosiyati va qonuniyatini oldindan biladi, Xudo unga o'z bilimini tuhfa etgan" [Komilov 2009, 39]ini yozadi.

Xizr haqida qarashlar, ixtiloflar, afsona va rivoyatlar juda ko'p. Navoiy g'azaliyoti asosida Xizr va Masih obrazlari tahlili uchun Navoiyning ushbu insonlar haqidagi o'z fikrlari muhim. Shoir "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Xizr haqida quyidagilarni yozadi: "Xizr a. s. ni mursal debdurlar. Va ul Arfaxshad binni Somning o'g'lonlaridindur va Zulqarnayn zamonida aning mulozimi erdi. Zulqarnayn hayvon suyi xiyoli bila zulumotqa kirgonda Xizr a. s. ani boshlab kirdi. Va derlarkim, Ilyos a. s. dog'i bila erdi. Umidkim, quyiroq zikr bo'lg'ay. Ul suvni Tengri taolo bu ikovga nasib qildi va Zulqarnayn mahrum yondin. Va ba'zi debdurlarkim, haq taolo Xizr a. s.g'a ilmi ladunni nasib qildi va hayvon suyi iborat ondindur. Ahli islom mu'taqidi uldurkim, Xizr a. s. umri jovid topibdur. Va Xoja Muhammad Porso q. s. ba'zi nusxada mundoq bitilibdurkim, Xizr a. s. Sabzavorning Kavk otlig' kentidindur va holo Hazrat Risolat sallallohu alayhi vasallam dinidadur va imom Shofe'i rahmatullohi mazhabidadur, vallohu taolo a'lam" [Navoiy 1987, 127]. Navoiy Xizrnинг "mursal" ekanligiga ishongan.

Iso (a.s) haqida ham xristianlar orasida har xil qarashlar,

ixtiloflar mavjud. Ammo musulmonlar uning payg'ambar ekanligiga ishonishadi. Sababi u haqida Qur'oni Karimda bir necha bor so'z keladi. Masalan birgina "Oli Imron" surasining nomlanishi ham Iso (a.s)ning onasi Maryam (a.s)ning otasining ismiga qo'yilgan. Ushbu surada Iso (a.s)ning tug'ilishi, mo'jizalari, xavoriylar bilan birga o'tkazgan kunlari haqida so'z keladi: "42. Farishtalarning: "Ey Maryam, albatta, Alloh seni tanlab oldi, pokladi va olamdagi ayollardan ustunligingni ixtiyor qildi. 43. Ey Maryam, Robbingning ibodatida bardavom bo'l, unga sajda qil va ruku' qiluvchilar bilan ruku' qil", deganlarini esla... 45. Farishtalar: "Ey Maryam, albatta, Alloh senga O'zidan bo'lgan so'zning bashoratini bermoqda, uning ismi Masiyh Iso ibn Maryam, bu dunyo-yu oxiratda obro'li va yaqin bandalardandir. 46. U odamlarga beshikda ham, qarigan chog'ida ham gapiradi va solihlardandir", deganlarini esla. Oyatda kelgan "so'z"dan murod Iso alayhissalomdir. "So'z" arabchada kalima deyiladi. Iso alayhissalomning bir nomlari "Kalimatulloh"dir. Chunki u kishining dunyoga kelishiga Allohnинг "Bo'l" degan so'zi, kalimasi sabab bo'lgan... 49. Va Bani Isroilga Payg'ambar qiladi. U: "Albatta, men sizga Robbingizdan mo'jiza keltirdim, men sizlarga loydan qushga o'xhash suvrat yasayman, unga puflasam, Allohnинг izni bilan qush bo'ladi. Alloh izni bilan tug'ma ko'r va peslarni tuzataman va o'likni tiriltiraman. Sizlarga nimani yemoqdasiz-u, nimani uyingizda saqlayapsiz – xabarini beraman. Agar mo'min bo'lsangiz, albatta, bunda sizga belgi bordir", deydi" [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 2008, 343]. Iso (a.s) haqidagi ushbu so'zlar Qur'oni Karim, "Oli imron" surasidagi so'zlardir. - Xo'sh, Navoiy o'zining u kishi haqida qarashlari qanday bo'lgan? "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida: "Iso binni Maryam salavotullohi alayh bir qavl bila uchunchiul-azmdur, bir qavl bila beshinchি. Andin burung'i anbiyodin so'ngra hech qoysig'a qirq yoshdin burun nubuvvat yetmadi. Va lekin ul modarzod pay-g'ambar erdi... Iso a. s.ni debdurlarkim, o'n yeti yoshida mab'us bo'ldi. O'tuzuchida osmong'a chiqtı" [Navoiy 1987, 173-177]. Navoiy ham Iso (a.s) haqidagi fikr va qarashlarida Qur'oni Karim va hadislarga suyangani yaqqol bilinib turibdi. Bundan tashqari shoir Iso haqidagi so'zlarida uning mo'jizalari, yuqorida keltirganimiz tug'ilishi haqidagi Qur'oni Karimdagi rivoyatlar, Maryam haqida ham to'xtalib o'tadi [Navoiy 1987, 177]. Shoir tarixiy asarlarida tarixiy manbalarga tayanishi, murojaat qilishi tabiiy. Ammo lirikada biroz chetlanish, tafakkurdan ko'ra ko'proq tasavvurga urg'u berish muhimroq. Shunday ekan Masih va Xizr obrazlari talqini Navoiy lirkasida, xususan,

g'azaliyotida qay tarzda kelganini ko'rib chiqamiz.

### **Xizr va Masih obrazi**

Navoiy poetikasini, xususan, g'azaliyotini o'rganish asnosida Xizr va Masih obrazi yonma-yon qo'llanilishi ko'zga yaqqol ko'rindi. Ma'lumki, Iso Masih ham tug'ilgan-u o'lman payg'ambar hisoblanadi va unga ergashuvchi din vakillari Iso (a.s) ning tirikligi, ularga rahnamolik qilishi va bir kuni qaytishiga qattiq ishonishadi. Mana shu jihatidan Xizr va Iso bir biriga o'xshash prototip. Ya'ni, tug'ilgan, o'lman. Yana bir o'xshashligi Iso (a.s)ning o'likni tiriltira olish qobiliyati borligi haqidagi rivoyatlarda. Huddi obi hayot – Xizr suvini ichgan o'lik ham tirilishi kabi.

Ushbu ikki katta obrazni bir biri bilan bog'liq holda ko'plab g'azal baytlarida uchratamiz. Hattoki, Navoiy "Xizr-u Masih" radifli butun boshli ikkita g'azal ham bitgan. Ushbu g'azallarning biri "Badoye' ul-vasat"ning 103-g'azali, biri esa "Favoyid ul-kibar"ning 103-g'azalidir [Navoiy 1987, 82, 226; Navoiy 1990, 261]. G'azallardan biri to'qqiz, biri esa yetti baytlik. Xizr va Masih obrazlari Navoiy lirkasida qay tarzda namoyon bo'lishini aynan mana shu g'azallar orqali bilib olishimiz mumkin. Qizig'i shundaki, g'azallarning ma'nosi deyarli bir xil, uslubi butunlay boshqacha. Foydalanilgan so'zları ham takrorlanmaydi, radifdan boshqa barcha so'zlar farqli. Masalan "Badoye' ul-vasat"dagi "Xizr-u Masih" radifli g'azalining matla'si quyidagicha:

Ey, xat-u jonbaxsh la'lingdin nishon Xizr-u Masih,  
Balki bu ikki uyotidin nihon Xizr-u Masih [Navoiy 1990, 80].

Masihnинг Navoiy asarlari izohli lug'atida ham yuqorida keltirilgan ma'nosi berilgan, har qanday dardni davolay oluvchi, o'likni tiriltira oluvchi [Navoiy asarlari lug'ati 1972, 242]. G'azalning eng e'tiborli jihatni Xizr va Masih birga qo'llanilib, radif sifatida foydalanilganligi. Poetik jihatdan ham g'azal asosiy ma'nosini tashuvchi so'z radifga olinadi. Demak, ushbu g'azalda urg'u Xizr va Masihga berilgan. Ikkisining birga qo'llanilishi esa, anglashilgan ma'noni bo'rttirishga xizmat qilgan. Yuqoridagi matla'da xat va Xizr hamda jonbaxsh la'l bilan Masih tashbeh qilingan. Quyidagi g'azal esa "Favoyid ul-kibar"ning 103-g'azali mat'lesi:

Ey, xat-u la'ling qoshida munfail Xizr-u Masih,  
Ne yoshunmoqdur, gar ermaslar xijil Xizr-u Masih.

Xat va labing oldida Xizr va Masih xayajonlanib qoladi, yashirinib nima qiladilar, Xizr va Masih uyatli emas-ku. Ushbu baytda shoir "xat va la'l so'zlarini ketma-ket keltirib, keyin Xizr va

Masih nomlarining zikr etilishi bilan laff-u nashr san'atini qo'llagan" [Ibrohim Haqqul 2016, 163]. Ushbu ikki g'azalning mat'lalari bizga g'azallar haqidagi umumiy ma'noni ochib beradi. Birinchi g'azalda Navoiy Xizr va Masihni yorning xat va labidan uyatli holda ta'riflab, keyingi g'azalda esa uyatli emasligi, yashirinishga hojat yo'qligi haqida yozadi. Xo'sh, Navoiy birinchi g'azalni yozgandagi fikridan qoniqmasdan keyingi ikkinchi g'azalni yozganmi? Aksincha, birinchi g'azaldagi fikrlarini bo'rttiribroq yanada go'zalroq berish uchun ikkinchi g'azalga ehtiyoj sezgan. Masalan, har ikki g'azaldagi matla'dan keyingi baytlarga nazar solinsa, bu yaqqol bilinadi:

Xat labingg'a muttasildur, lab yuzungakim, erur  
Obi hayvon-u quyoshqa muttasil Xizr-u Masih.

"Favoyid ul-kibar"dan olingen ushbu g'azal baytida ham xat, lab, yuz, obi hayvon va quyosh timsollaridan foydalanilgan. Xating (mo'ying) labingga tutashgan, labing yuzingga tutashgan go'yoki obi hayvonga Xizr, quyoshga Masih tutashgani, yaqin bo'lganidek.

Xat labing uzra, labing yuz uzradur qilg'on kebi  
Obi hayvon-u quyosh uzra makon Xizr-u Masih.

"Badoye' ul-vasat"dagi ushbu g'azalda ham yuqoridagi tasvir aynan beriladi. Xizrnning makoni yo'q, odamlar orasida kezib yuruvchi. Ammo Hadis va Qur'oni Karimda keltirilgan rivoyatlarda u ikki dengiz oralig'ida yashaydi. Iso esa xristianlar e'tiqodiga ko'ra Quyoshni makon qilgan, ya'ni osmonga chiqib ketgan. Xating labing ustida, labing yuzing ustida qanday go'zal joylashgan, go'yoki Xizr obi hayvon uzra, Masih esa Quyoshda yashagani singari. G'azallar baytma-bayt yor tasviri mubolag'alari bilan davom etaveradi.

Ul yoshung'oy zulmat ichra, bu falakdin yonmag'ay,  
Ko'rsalar xatt-u labingni nogahon Xizr-u Masih.

Yuqoridagi "Badoye' ul-vasat"dagi uchinchi bayt. Quyida esa "Favoyid ul-kibar"dagi uchinchi bayt:

O'ylakim Xizr-u Masih ollida sabza birla su,  
Xatting-u la'ling qoshinda o'yla bil Xizr-u Masih.

Ko'rinib turganidek, g'azallar uchinchi baytdan ma'no burilishlariga uchraydi. "Badoye' ul-vasat"dagi baytda qachonki xatt-u labingni ko'rib qolsa Xizr zulmat ichra yashirinadi, Masih esa falak uzra deydi. "Favoyid ul-kibar"dagi baytda esa sabza bilan suv Xizr va Masihning oldida xatt va la'ling qanday bo'lsa shunday deyapti. "Ushbu bayt (umuman, g'azal) tasavvufiy mazmunga ega.

Aks holda ma'shuqaning xatt-u la'li Olloh payg'ambarlaridan ustun qo'yilmas edi" [Ibrohim Haqqul 2016, 165]. Ma'lum bo'lganidek, ikkala baytlardagi timsollar butunlay boshqacha. Ammo g'azallar haqida xulosa berish uchun keyingi baytlarni ham ko'rib chiqishimiz lozim bo'ladi.

Gar Masih-u Xizr ko'zdin g'oyib o'lmishlar, ne tong,  
Sabzavu obi hayotingdur hamon Xizr-u Masih.

"Badoye' ul-vasat"dagi g'azalning to'rtinchi bayti va quyida "Favoyid ul-kibar"dagi g'azalning to'rtinchi bayti:

Chun Masihoso labingdin Xizr umri kasb o'lur,  
Bo'lsalar andin, ajab yo'q, munfail Xizr-u Masih.

Ushbu baytlarda ham timsol va obrazlar farqli, faqatgina Xizr va Masih obrazlari saqlanib qolingga. Baytlar o'z g'azallarining mantiqiy davomi bo'lib kelmoqda. Qofiya ham, vazn ham o'z g'azallarining davomi. Aynan shu baytlardan g'azalning so'fiyona g'azal ekanligi ravshan ko'rina boshlaydi. Faqatgina radif saqlanyapti. Xo'sh beshinchi baytlarda holat qanaqa? "Badoye' ul-vasat"dagi g'azalning beshinchi bayti:

Go'yiyo Ruhul quds ya'ni dampingdin yetti fayz  
Kim, muabbad topti umr-u berdi jon Xizr-u Masih.

Va quyidagi "Favoyid ul-kibar"dagi g'azalning beshinchi bayti:

Lablaringdindur Masih-u Xizrg'a nutq-u hayot  
Kim, emishlar ishlariga mustaqil Xizr-u Masih.

Endi bu baytlarga kelib g'azal ma'nolari abadiy hayot rakursida yana tutashadi. "Badoye' ul-vasat"da Ruhul quds ya'ni Iso Masihning jon bag'ishlovchi nafasida fayz borligi, Xizr va Masihning abadiy umrga erishish uchun jon berishganligi haqida yozilsa, "Favoyid ul-kibar"da yor lablaridan Masih va Xizrga jon beruvchi so'z borligi, lekin ular o'zlariga o'zları mustaqil ekanliklari haqida so'z boradi. Ushbu baytlardagi tutash nuqta "ruhul quds" va "nutq-u hayot"dir.

G'azallarning baytlari, yuqorida ta'kidlanganidek, teng emas. "Badoye' ul-vasat"dagi g'azal to'qqiz baytlik, "Favoyid ul-kibar"dagi g'azal esa yetti baytlik. G'azal poetikasida asosiy ma'no maqta'dan oldingi baytga tushishi ma'lum. Shu sababli maqta'dan oldingi baytlarni birgalikda tahlil qilamiz. Ammo orada bir necha bayt qolib ketadi. "Favoyid ul-kibar"dagi g'azal yetti baytlik bo'lganligi sababli,

oltinchi bayt unda maqta'dan oldingi bayt, yettinchi bayt esa maqta' hisoblanadi, "Badoye' ul-vasat" dagi g'azal to'qqiz baytlik bo'lganligi uchun unda sakkizinchchi bayt maqtadan oldingi bayt, to'qqizinchchi bayt esa maqta' hisoblanadi. Ammo orada oltinchi va yettinchi baytlar qolib ketadi. Shu sababli, "Badoye' ul-vasat" dagi g'azalning oltinchi baytini hozir ko'rib o'tib, yettinchi baytini maqta'dan oldingi bayt bilan birga ko'rish maqsadga muvofiq sanaladi:

Yo'q damping, balkim nasimi gulshaning aylar sahi  
Bo'lsalar muhlik marazdinnotavonXizr-u Masih.

Daming emas, balkim mayin esgan shabbodang ham gulshanni sihat qiladi, agarada Xizr yoki Masih o'ldiruvchi kasallikdan quvvatsiz bo'lgan bo'lsa, ularga ham nasiming sihatlik olib keladi. Ushbu bayt o'ta yuqori lirik va poetik san'at bilan yozilgandir. Ma'shuqaga yorning muhabbat engyuqori darajasi mana shu baytda. Yo'qsa shoir ma'shuqa labi hatto Xizr va Masihni tuzalmas kasallikdan tuzatadi, kerak bo'lsa tiriltiradi dermidi. Ushbu bayt g'azal tasavvufona ekanligining yorqin isbotidir. G'azallar shu darajadagi yuqori pafos, o'ta ichkin lirika bilan yozilgan. Navoiyga xos bo'lgan hayratomuz tashbehlarga to'la. Ergash Ochilov "Favoyid ul-kibar" dagi aynan mana shu g'azalni sharhlar ekan, boshdan oxir laff va nashr, tazod, husni ta'lil san'atlari qo'llanilganini aytadi [Ibrohim Haqqul 2016, 167].

E'tiborimizni maqta'dan oldingi, asosiy ma'no tashuvchi baytlar hamda maqta'ga qaratamiz. "Badoye' ul-vasat" dagi maqta'dan oldingi baytlar:

Xattidin la'lig'a yettim, la'lidin toptim hayot,  
Ul ikav bo'ldi manga, ey xasta jon, Xizr-u Masih.

Soliki foni tavajjuhdin taraddud aylamas,  
Yotsalar mahviy shuhud bo'lg'an zamon Xizr-u Masih.

Xat oshiq jamoli zohirining ilk belgisi, la'l visol. Visol - haqiqat bosqichi, lomakonga yetish. Xizr - ma'shuqasini izlayotgan abadiy sargardon oshiq, Masih ham huddi shunday. Xat(t) orqali visolingga yetishib aslimni, haqiqiy o'zimni, hayotimni topdim, ana shu ikki narsa menga o'zimni topishimga Xizr va Masih bo'ldi. Ya'ni o'lik qalbimni ishq nuri bilan tirlishi Xizrnning abadiy hayotga erishuvi va Masihning o'likni tiriltirishi kabi edi. So'fiy tavajjuhda hech ham ikkilanmaydi, taraddulanmaydi. Zotan u ana shu tavajjuh yo'lida umrini sarf qiladi. Shunday zamon bo'ladiki, deydi Navoiy, mahviy narsa shuhud bo'ladi. Ya'ni jismi izsiz yo'q bo'lgan Iso paydo

bo'ladi yoki o'zi istagan kishilarigagina ko'rindigan Xizr zohir bo'ladi. Huddi shu kabi vaqtlar g'animat, taraddudlanmaydigan vaqt. Odamzot bir umr ana shu kabi oniy lahzalar uchun yashaydi, o'shanday buyuk tavajjuhlar uchun so'fiylar tariqat yo'llarida sinaladi. Ushbu baytlarda Navoiy ulug' kun – qiyomatga ishora qilib ketadi. Unga ishorada esa go'zal talmeh bilan Masih va Xizr obrazlaridan foydalanadi. G'azalning maqta'sida esa shoir so'nggi so'zni aytib, go'zal yakun yasaydi:

Dayr piri qo'ldabon, turguzdi maydin mug'bacha,  
Ey Navoiy, bu ikavni qil gumon Xizr-u Masih.

Deyr: Arapça manastır demektir. Tasavvufî olarak şu anlamını ifade eder: İnsanlık alemi. Düveyre: Zaviye. Deyr-i muğan: Mecusi rahiblerinin ibadethanesi, muğların mabedi. Bu ifade, tasavvufî olarak arif ve evliya toplantıları anlamındadır [Cebecioğlu E 2004, 165]. Pir: Farsça, ihtiyar, yaşlı kimselere pîr denir. Tasavvuf liderine de pîr adı verilmiştir. Bu kelime ustâd, mütehassis gibi anımları da ihtiva eder: "O, bu işin pîridir" gibi. Büyük adamlar için kullanıldığı da olmuştur. Eskiden tarikat kurucusu şeyhlere de, pîr denirdi [Cebecioğlu E 2004, 499].

Dayr piri meni qo'lladi va majusiy bola meni maydan, ishq xayolotidan qutqardi. Navoiy bu ikkovini Xizr va Masih deb gumon qil. Savol tug'ilishi tabiiy, Navoiy nima uchun Masih obrazini Xizr bilan birga yo'lboshlovchi sifatida qo'llamoqda? Iso (a.s)ning payg'ambar ekanligiga ishonish har bir musulmonning burchi. Sababi u haqida muqaddas Qur'oni Karimda oyatlar kelgan. Har qanday payg'ambar Muhammad (a.s)ning ajdodi hisoblanadi. Shu sabab Qur'oni Karimda nomlari zikr qilingan payg'ambarlarga iymon keltirish musulmonlar uchun farzdir. Navoiy ham "dayr piri" deb Xizrnı ataydi. Chunki Xizr abadiy yer yuzida kezib yuruvchi qari chol ko'rinishda va o'ta donishmand inson sifatida tasvirlanadi. Hamda Navoiy Xizrnинг mursal ekanligiga ishongan. Bu haqida yuqorida dalillar keltirib o'tdik. O'zining hamisha qo'llab turuvchi Xizri bor ekanligiga ham ishongan. Mug'bacha deb esa Iso Masihni ataydi. Mug'bachalar odatda majusiy bolalardan bo'lishi tasvirlanadi. Sababi islomda may xarom qilingan. Lekin xristianlarda may muqaddas ichimlik hisoblanadi. Shu sababli tasavvufdag'i may quyuvchi kishiga majusiy bola timsoli olinadi. Navoiyni maydan turguzgan kimsa esa bu yerda Iso Masih. Masih, yuqorida ta'riflarini keltirganimiz kabi, tuzalmas dardlarni ham davolovchi payg'ambar bo'lgan. May – ilohiy ishq yo'li ham tuzalmas, inson bir marta yo'liga tushsa qaytib chiqishi mushkul bo'lgan yo'llardan biridir. Shu sababli maqta'da Navoiy Masih meni

mana shu yo'ldan qaytardi, yo'qsa o'zimni batamom yo'qotib qo'yar edim deydi. Bu huddiki, tariqat yo'lidagi murshidni muridlar qo'llab turishi kabi. Agar murid murshidni qo'llab turmasa, murshid bu yo'lda aqldan ham ozishi hech gap emas.

"Badoye' ul-vasat"dagi g'azalning qisman ma'nosi shunday edi. Endi "Favoyid ul-kibar"dagi g'azalning maqta'dan oldingi baytiga qaraymiz. Oldingi g'azalga qaraganda ushbu g'azalda ma'no kuchaytirilib beriladi:

Sabzayi xat ko'rguzub, jonbaxsh labdin so'z degach,  
Bo'ldilar ul hayrat ichra muzmahil Xizr-u Masih.

Xizr insonlar ichidagi eng bilimdan inson deb keltiriladi hadisda. Insonning bilimi qanchalik yuksak bo'lsa, hayrati shunchalik kam bo'ladi. Masih ham o'z zamonining eng bilimdon kishisi bo'lib, hattoki o'lgan insonni tiriltirish ilmiga ega bo'lgan. Demak, har ikkisining ham hayrati juda oz. Ammo kasrat (xat) vodiysisida jonbaxsh la'lidan (Allohning so'zi; bu g'azal, ehtimol, na't g'azal bo'lib Payg'ambarimizning so'zлari haqida ham gap ketayotgan bo'lishi mumkin) so'z eshitgach, ushbu so'zlarning hayratidan hatto Xizr va Masih ham o'zlarini yo'qotib qo'ydilar.

"Favoyid ul-kibar"dagi g'azalning maqta'si, yakuniy xulosasi esa quyidagicha:

O'ldi hajridin Navoiy, tushsalar bu hajr aro,  
Tong yo'q o'lmoq bu sarodin muntaqil Xizr-u Masih.

Hicran: Arapça, ayrılık demektir. İç ve dış açısından Allah'tan gayrisine meyletme haline hicran denir [Cebecioğlu E 2004, 272]. Ko'rinish turşanidek, hajr Allohdan boshqasiga sig'inish, Allohdan boshqasidan madad kutishdir. Tariqat yo'li shunaqa yo'lki, unda ozgina chalg'ish ham solikni o'z yo'lidan adashishga olib kelishi mumkin. Navoiy mana shu hajrda o'lib bo'ldi, agar Xizr va Masih ham hajr yo'liga kirsa, bu dunyodan o'tib ketishlari ajablanarli emas deydi Navoiy maqta'da. Zotan Xizr ham, Masih ham abadiy barhayot bo'lgan to'rt insonning biri, lekin Allohdan boshqasidan nimadir tilansa, ular ham muqarrar o'ladilar. Yana boshqa rakursdan qaralsa, dunyo hajrgoh deyiladi. Ya'ni odam aslida u dunyoda – jannatda tug'ildi. Allohdan boshqasiga ishonishi, ya'ni shaytonning gapiga kirib, ta'qiqlangan mevani yeyishi natijasida yer yuziga – hijronzorga abadiy surgun qilindi. Ushbu maqta'da ham Navoiy bu dunyo meni o'ldirdi, kimki bu dunyoning ko'yiga, dardiga tushsa, hatto Xizr va Masih bo'lsa ham o'lishi muqarrar deyapti.

## Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xizr va Masih obrazlaridan Navoiy unumli foydalangan. Talmehga, asosan, abadiy hayot, tiriltiruvchi xususiyat, bilimdonlik kabi xislatlarini asos qilib ishlatgan. Bu ikki bir biriga o'xshash g'azallarni, ehtimol, Xizr va Masih obrazlarini yorqinroq ochib berish uchun yozgandir. Aslida bir biriga o'xshash deyish ham noo'rin. Chunki yuqorida g'azallarning ma'nosi bir birini takrorlamasligi, balki to'ldirib, kuchaytirilib kelgani ta'kidlandi. O'sha zamon adabiy muhitining an'anasiaga ko'ra, bir ma'noni butunlay boshqacha uslubda berish asl mahorat sanalgan. Navoiyning ham asl mahoratini mana shu ikki g'azal misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Matla'lар, matla'dан keyingi yana ikki baytlarning ma'no jihatidan juda ham bir biriga o'xshashligi, ammo uslub, timsollarning butunlay farq qilishi fikrimizning isboti bo'la oladi. Asl shoirning iste'dodi g'azaldan g'azalga o'sib, yuksalib boraveradi. Shu sababli ham "Favoyid ul-kibar"даги g'azal mazmuni, uslubi, so'z qo'llash jihatidan "Badoye' ul-vasat"даги g'azaldan yaxshiroq, mukammalroq degan xulosani berish mumkin.

## Adabiyotlar

- Навоий, Алишер. (1987). *Бадойиъ ул-бидоя*. МАТ. 20 томлик. Т.1. – Тошкент: Фан. – Б. 689.
- Навоий, Алишер. (1987). *Наводир ун-ниҳоя*. МАТ.20 томлик. Т.2. – Тошкент: Фан. – Б. 622.
- Дехконов, А. (2022). Navoiy qahramonlarining o 'limi. Узбекистан: язық и культура, 1(1), 4-14.
- Dehqonov, A. (2020). Arba'innavislik an'anasi va Muhayyir adabiy faoliyati. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 2(2).
- Навоий, Алишер. (1990). *Бадоегъ ул-васат*. МАТ. 20 томлик. Т.5. – Тошкент: Фан. – Б. 528.
- Навоий, Алишер. (1990). *Фавойид ул-кибар*. МАТ. 20 томлик. Т.6. – Тошкент: Фан. – Б. 555.
- Навоий, Алишер. (1990). *Тарихи анбиё ва хукамо*. МАТ. 20 томлик. Т.16. – Тошкент: Фан. – Б. 329.
- Комилов, Нажмиддин. (2009). *Tasavvuf*. Тошент: Мовароуннахр – Ўзбекистон. – Б. 447.
- Cebecioğlu E. (2004). *Tasavvuf terimleri ve deyimleri sozluğu*.İstanbul: Agac Kitabeyi Yayınlari. – Б. 738.
- Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. (1990). *Qisasi Rabg'uziy*. Т.2. – Toshkent: Yozuvchi. – Б. .269.
- Шамсиев ва б. (1972). *Навоий асарлари луғати*. – Тошкент: Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Б. 489.
- Мухаммад Юсуф, Мухаммад Содик. (2008). *Тафсири ҳилол*. 4 жузлик. Ж.1. – Тошкент: Шарқ.– Б. .665.
- Ҳаққул, Иброҳим. Очилов, Эргаш. (2016). *Ишқ ва ҳайрат олами* –

- мақолалар тұрлами. – Тошкент: Ўзбекистон.– Б. 304.
- Tukhliev, B., & Ismailov, I. (2020). The image of Iskandar in turkic sources. *International Journal of Scientific & Technology Research*, 9(02), 1195-1200.
- Ismailov, I. (2021). About the Talismans of Iskandar (Alexander) by Alisher Navoi. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(3), 139-145.
- Исмаилов, И. (2023). Nizomiy va Navoiy: bir mavzuning turfa talqini. Узбекистан: язық и культура. *Литературоведение*, 1(1), 18-32.
- Ismailov, I. (2021). Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni debochasi badiiyati. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 1(1).
- Hamroyeva, O. THE ARTISTIC PURPOSE OF ALISHER NAVOIY'S RHYME. *Türkoloji*, (120), 63-84.
- Hamroyeva, O. MUMTOZ OOFIYA NAZARIYASI ASOSLARI.
- Jalolovna, H. O. (2023). SHAMSIDDIN KAYSI RAZI'S" AL-MO'JAM FI MAOYIRI ASH'AR UL-AJAM" IS AN IMPORTANT SOURCE OF POETICS. *Academia Repository*, 4(11), 81-86.
- <https://www.hurriyetdailynews.com/who-was-the-hizir-in-hidirellezz-46185>

## The Interpretation of the Images of Khidr and Christ in Alisher Navoi's Ghazals

Khafiza Abduraimova<sup>1</sup>

### Abstract

Alisher Navoi occupies an unparalleled position in the history of Turkic literature, particularly in Uzbek literary tradition. This article aims to explore the depth of imagery in Navoi's lyrical poetry, especially focusing on the meanings and motivations behind his poetic representations.

